| <i>Аскарова Ф. А.</i>                                                                                                                                            |     |
| Yengil atletika sport turida uzunlikka sakrovchilarni mashg'ulot jarayonida tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirish uslubiyati .....                              | 528 |
| <i>Ro'zmetov Rasul Tangirberganovich</i>                                                                                                                         |     |
| Nutq – ijtimoiy taraqqiyot omili sifatida: maktabgacha yoshdagi bolalarda shakllanish bosqichlari va yondashuvlar .....                                          | 532 |
| <i>Sharipova Guzal Sodiqovna, Xabibullayeva Maftunaxon Vaxobjon qizi</i>                                                                                         |     |
| Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida multimedia vositalari orqali nutq madaniyatini shakllantirish modeli .....                                       | 535 |
| <i>Abduvaliyeva Farida Salimjon qizi</i>                                                                                                                         |     |
| Yoshlarni ijtimoiy-pedagogik hamkorlikda tarbiyalash tendensiyalari .....                                                                                        | 539 |
| <i>Abirova Umida Nazarovna</i>                                                                                                                                   |     |
| Tanqidiy fikrlash: tushunchasini tahliliy idrok etish .....                                                                                                      | 543 |
| <i>Akabiroya Mexriniso Baxtiyorovna</i>                                                                                                                          |     |
| Nutq nuqsoniga ega bolalar diqqat xususiyatlari .....                                                                                                            | 547 |
| <i>Akbarova Ziyoda Qurbonjon qizi</i>                                                                                                                            |     |
| Milliy tarbiya asoslari fanini o'qitishning amaliyotdagi holati .....                                                                                            | 550 |
| <i>Alisher Tursunov</i>                                                                                                                                          |     |
| Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi asosiy omillar va ularni bartaraf etish yo'llari .....                                                 | 554 |
| <i>Beketov Nurseit Alijan o'g'li</i>                                                                                                                             |     |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarining atrof-muhitga ekologik munosabatini oshirishda ekskursiya mashg'ulotlarini o'tkazishda raqamli texnologiyalarning o'rni ..... | 558 |
| <i>Bovanova Umida Abduvahabovna, Meliqulova Oybahor Farhod qizi</i>                                                                                              |     |
| Neyropedagogika va zamonaviy ilmiy yondashuvlar .....                                                                                                            | 564 |
| <i>Duschanova Nilufar Sabirbayevna</i>                                                                                                                           |     |
| O'yin texnologiyasi asosida bolalarda muloqot madaniyatini rivojlantirish .....                                                                                  | 567 |
| <i>Eshmuratova Gauxar Maxsudovna</i>                                                                                                                             |     |
| Maktabga tayyorlov guruhi bolalarida konstruksiyalashga oid ko'nikmalarni shakllantirish .....                                                                   | 570 |
| <i>Eshonqulova Ma'suda Xabibovna</i>                                                                                                                             |     |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantirish markazlaridagi ta'limiy faoliyatlarni kuzatish va tahlil qilish metodikasi .....                               | 573 |
| <i>Fayziyeva Mabudaxon Muxammadjonovna</i>                                                                                                                       |     |
| Duduqlanuvchi bolalar nutqini rivojlantirishda logopedik texnologiyalarning o'rni .....                                                                          | 576 |
| <i>Mahkamova Umida Abdusattorovna</i>                                                                                                                            |     |
| Kurash mashg'ulotlarining o'quvchilarni axloqiy tarbiyalashdagi roli: an'anaviy sportning pedagogik imkoniyatlari .....                                          | 579 |
| <i>Muratov Muzaffar Shermanovich</i>                                                                                                                             |     |
| Autizm sindromli bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda korreksion ishlar .....                                         | 582 |
| <i>Nabiyev Ravshanjon Shavkatjon o'g'li</i>                                                                                                                      |     |
| Sharq ma'rifatparvarlari va ularning gender tengligi haqidagi qarashlari .....                                                                                   | 586 |
| <i>Norimonova Gulmira Ulug'bek qizi</i>                                                                                                                          |     |
| Sport vositasi orqali yoshlar o'rtasida ekstremizmning oldini olish yo'llari va mexanizmlari .....                                                               | 589 |
| <i>Nosirova Dilnoza Sobirovna</i>                                                                                                                                |     |

|                                                                                                                                                                                          |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Sportchilarning individual funksional xususiyatlariga asoslangan mashg'ulot yuklamalarini optimallashtirish yo'llari .....                                                               | 593 |
| <a href="#">Olimov Shahobiddin Maribboy o'g'li, Sulaymonova Maktuba Xusan qizi</a>                                                                                                       |     |
| Kasbiy sifatlarini takomillashtirishda raqamli texnologiyalar foydalanish .....                                                                                                          | 597 |
| <a href="#">Otanazarova Mohira Xamidbekovna</a>                                                                                                                                          |     |
| Biologiya fanining ta'limdagi o'rni va o'qitishdagi muammolar .....                                                                                                                      | 601 |
| <a href="#">Pulatova Elnora Kadirovna</a>                                                                                                                                                |     |
| Boshlang'ich sinf darsliklaridagi antroponimlarning funksional, leksik, semantik, morfologik tadqiqi .....                                                                               | 606 |
| <a href="#">Qarshiyeva Gulbahor Shamil qizi</a>                                                                                                                                          |     |
| Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish metodik muammo sifatida ..                                                                                 | 609 |
| <a href="#">Raxmonova Iroda Samijonovna</a>                                                                                                                                              |     |
| Professional Standards for Pre-Service Teachers .....                                                                                                                                    | 613 |
| <a href="#">Sardor Rakhmanov</a>                                                                                                                                                         |     |
| Ta'limni raqamlashtirish sharoitida bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari .....                                                 | 619 |
| <a href="#">Sayidova Muxtaram Xamidullayevna</a>                                                                                                                                         |     |
| Ingliz tilini o'rgatishda multimodal yondashuv asosida ta'limiy videolardan foydalanish strategiyasi .....                                                                               | 623 |
| <a href="#">Solijonova Mohlaroyim Abdumalik qizi</a>                                                                                                                                     |     |
| Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini matn ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda interfaol metodlardan foydalanish .....                                                  | 628 |
| <a href="#">Sotiboldiyeva Shoxista Jaloliddin qizi, Shodmonqulova Sevara Rahmonqul qizi</a>                                                                                              |     |
| O'quv-tarbiyaviy vaziyatlarni loyihalashtirish asoslarida talabani tarbiyaviy jihatlarini takomillashtirish ..                                                                           | 632 |
| <a href="#">Temirov Ma'ruf Shuhrat o'g'li</a>                                                                                                                                            |     |
| Tikuv buyumlarini konstruksiyalash va modellashtirishning avtomatlashtirilgan tizimlari fani orqali talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari ..... | 638 |
| <a href="#">Umarova Fotima Abduraximovna</a>                                                                                                                                             |     |
| Bo'lajak o'qituvchilarda xalq pedagogikasi vositasida milliy xarakter xususiyatlarini shakllantirish omillari .....                                                                      | 641 |
| <a href="#">Usmonova Muattar Bahadirjonovna, Hasanboyeva Kamola Dilmurod qizi</a>                                                                                                        |     |
| Raqamli ta'lim texnologiyalarning bugungi kunda ta'lim sohasidagi qo'llanilishi .....                                                                                                    | 647 |
| <a href="#">Xamroyeva Madina Dadajonovna, Umarov Husan Lazizi o'g'li</a>                                                                                                                 |     |
| Qurilish materiallari sanoatida innovatsion klasterlarni boshqarishni takomillashtirish .....                                                                                            | 650 |
| <a href="#">Xaydarova E'zoza Shukurullayevna, Li Zin Bo</a>                                                                                                                              |     |
| Geografiya ta'lim yo'nalishi talabalarini o'qitish metodikasi va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga oid tadqiqot ishlarining tahlili .....                                       | 655 |
| <a href="#">Xodjaniyazova Shoxsanam Ergash qizi</a>                                                                                                                                      |     |
| O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umurlar" romanida inson va uning ruhiyati .....                                                                                                      | 660 |
| <a href="#">Xolmatova Ro'zixon Akmaljon qizi</a>                                                                                                                                         |     |
| Talabalarda liderlikni shakllantiruvchi ijtimoiy-pedagogik omillar .....                                                                                                                 | 663 |
| <a href="#">Xoshimova Muazzamxon Zaynalobidinovna</a>                                                                                                                                    |     |
| Creative Games and Project-Based Learning in Physics Lessons .....                                                                                                                       | 666 |
| <a href="#">Yorqinbek Abduraimjanovich Mamatokhunov</a>                                                                                                                                  |     |
| Теоретические основы и практическое применение компетентного подхода в обучении физике .....                                                                                             | 670 |
| <a href="#">Абдулхаким Хакимов</a>                                                                                                                                                       |     |
| Роль инклюзивной игровой деятельности в социальной адаптации детей с инвалидностью дошкольного возраста .....                                                                            | 673 |
| <a href="#">Плиева Руслана Владимировна</a>                                                                                                                                              |     |
| "Beruniy asri" yoxud Beruniyning xarizmatik qobiliyati va uning boqiy ilmiy merosi .....                                                                                                 | 676 |
| <a href="#">Saifnazarov Ismoil, Sultonov Tursinboy</a>                                                                                                                                   |     |
| Значение наблюдения и педагогической диагностики в инклюзивном образовании .....                                                                                                         | 682 |
| <a href="#">Тургунова Нилуфар Абдусаломовна</a>                                                                                                                                          |     |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik dunyoqarashini shakllantirish texnologiyalari .....                                                                                            | 685 |
| <a href="#">Xaydarova Shaxlo Narzullayevna, Azimova Gulmira Xayrullayevna</a>                                                                                                            |     |
| Диалог культур в рассказе "Келинка" галины ширяевой: гендерная и этнокультурная перспектива ..                                                                                           | 689 |
| <a href="#">Чернова Татьяна Алексеевна</a>                                                                                                                                               |     |
| Ijtimoiy va gumanitar fanlarning pedagogik ahamiyati: Xo'ja Vali avlodlari misolida .....                                                                                                | 692 |
| <a href="#">Umurov Sharif Rajabovich</a>                                                                                                                                                 |     |



|                                                                                                                                                                         |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Raqamli ta'lim sharoitida talabalar mustaqil tayyorgarligini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari: didaktik yondashuvlar va ilg'or ilmiy modellarning tahlili..... | 695 |
| Umarova Zaxro Abduraxim qizi                                                                                                                                            |     |
| Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda innovatsion yondashuvga oid dolzarb masalalar .....                                                                   | 701 |
| Sharofat Juraqulova Baxtiyorovna                                                                                                                                        |     |
| Bo'lajak ingliz tili mutaxassislarining sun'iy intellekt kompetensiyasi.....                                                                                            | 704 |
| Ibragimova Hilola Bahodirjon qizi                                                                                                                                       |     |
| Oliy ta'lim muassasalari talabalari orasida kurash sport turini keng rivojlantirish .....                                                                               | 709 |
| Ochilov Elbek Olimovich                                                                                                                                                 |     |
| Muhandislik grafikasi ta'limida talabalarining grafik ishlarni bajarish ko'nikmalarini rivojlantirish.....                                                              | 712 |
| Ashirboyev A. O., Muxamedjanova G. J.                                                                                                                                   |     |
| Futbol mashg'ulotlarida o'quvchilarda jamoaviy ruhni pedagogik usullar bilan rivojlantirish .....                                                                       | 715 |
| Axmedjanov Shuhrat Boltayevich                                                                                                                                          |     |
| Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida nutqiy va lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish .....                                                                       | 718 |
| Bamullayeva Shodiyona Nasrullo qizi                                                                                                                                     |     |
| Umumiy o'rta ta'lim o'quv dasturlarining sifat va samaradorligini oshirishning nazariy hamda ilmiy asoslari .....                                                       | 721 |
| Esanov Muzaffar Xoshimovich                                                                                                                                             |     |
| Bo'lajak tarbiyachilarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash texnologiyalari .....                                                                              | 726 |
| Eshmuminova Dilshoda Iskandarovna                                                                                                                                       |     |
| Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida pedagogik yondashuvlarning roli .....                                                                                                 | 730 |
| Jumanova Iroda Shokirjon qizi                                                                                                                                           |     |
| Arab xattotlik san'atining rivojlanishi.....                                                                                                                            | 733 |
| Mamarajabov Mirqosim Ramazon o'g'li                                                                                                                                     |     |
| Educational Effectiveness of the Question-and-Answer Technique in Working With English Texts .....                                                                      | 737 |
| Muradulloyeva Sevinch Soxibjon qizi                                                                                                                                     |     |
| Boshlang'ich sinf matematika va geometriya darsliklarida STEAM yondashuvi asosida o'qitishning imkoniyatlari.....                                                       | 740 |
| Nazarova Shahzoda                                                                                                                                                       |     |
| Boshlang'ich ta'lim o'quv jarayoniga sun'iy intellektni tatbiq etishning metodik asoslari (sinfidan tashqari ishlar misolida) .....                                     | 744 |
| Nigmatullayeva Matluba Izatullo qizi                                                                                                                                    |     |
| Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining o'quvchilarda ijtimoiy faollikni shakllantirishdagi pedagogik imkoniyatlari .....                                                   | 748 |
| Normaxmatov Ilhom Zayniddinovich                                                                                                                                        |     |
| Boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining imkoniyatlari.....                                                                         | 751 |
| Qurbonov Sanjar Rajabboyevich                                                                                                                                           |     |
| Sportchi salomatligini baholashda zamonaviy texnologiyalar.....                                                                                                         | 754 |
| Samandarov A. X.                                                                                                                                                        |     |
| Sport tashkilotlari uchun marketing, e-marketingning foydalari .....                                                                                                    | 758 |
| Samatov Javlonbek Abdukayumovich                                                                                                                                        |     |
| Futbol o'yinlari orqali o'quvchilarda jismoniy tarbiya pedagogikasining ahamiyati .....                                                                                 | 762 |
| Sattarov Qarshiboy Norqulovich                                                                                                                                          |     |
| Kichik maktab yoshidagi bolalarda lingvistik kreativ intellektni shakllantirishning pedagogik shartlari .....                                                           | 765 |
| Shodiyev Rizamat Davronovich, Jabborova Maftuna Komil qizi                                                                                                              |     |
| Ota-onalar bilan samarali hamkorlikni tashkil etishda direktorning strategik yondashuvi.....                                                                            | 770 |
| Tog'ayeva Shahnoza Shavkatovna                                                                                                                                          |     |
| Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa tinglash .....                                                                                                                 | 774 |
| Xodjayeva Nilufar Latipovna                                                                                                                                             |     |
| Talabalarda kitobxonlik madaniyatini targ'ib qilish orqali sog'lom fikrlarni shakllantirish masalasi.....                                                               | 778 |
| Xudayberganova Nargisa Qurbonbayevna                                                                                                                                    |     |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkurini rivojlantirishda interfaol metodlarning ahamiyati .....                                                                  | 782 |
| Xursanova Marjona Baxtiyor qizi                                                                                                                                         |     |
| Sun'iy intellekt – bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilari ta'limini modernizatsiya qilish vositasi sifatida .....                                                         | 785 |
| Yoqubaliyeva Dilafruz Payzidin qizi                                                                                                                                     |     |
| Tibbiy pedagogika: kasbiy ta'limda sog'lom turmush tarzi shakllantirishning psixopedagogik asoslari.....                                                                | 788 |
| Ziyatov Muhammad Namazovich                                                                                                                                             |     |
| Интерактивное обучение в развитии личности и критического мышления студентов .....                                                                                      | 792 |
| Рысова Галия Байбулатовна                                                                                                                                               |     |

# MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA MUSIQA TINGLASH

Xodjayeva Nilufar Latipovna

Andijon davlat universiteti Sport va san'at fakulteti  
"Musiqi ta'limi" kafedrası o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada musiqa tinglash jarayonida bolalar turli bastakorlarning asarlaridan namunalar tinglaydilar hamda uning yoshlar tarbiyasidagi o'rni va ahamiyati keng yoritilgan. Musiqa tinglash orqali bolalarning estetik didini shakllantirish, jahon musiqa san'ati durdonalari bilan tanishtirish, musiqaning ifoda vositalarini o'rgatish, yuqori badiiy saviyadagi musiqiy asarlarga nisbatan muhabbat uyg'otish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada musiqa tinglash jarayonida ijodkorlikni rivojlantirish, jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirish hamda bo'sh vaqtni mazmunli tashkil etish imkoniyatlari tahlil etilgan. Amaliy misollar asosida musiqa tinglashning tarbiyaviy, estetik va ijtimoiy funksiyalari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** musiqa tinglash, estetik did, musiqa mashg'ulotlari, qalb olamiga sayohat, milliy ma'naviyat, musiqiy marosim, iqtidorli bolalar, do'stlik, jahon musiqa san'ati.

**Abstract:** This article explores the process of listening to music in preschool education, during which children are introduced to works by various composers. The article highlights the significance of music listening in the upbringing of young children. It analyzes how listening to music helps develop children's aesthetic taste, introduces them to the masterpieces of world musical art, teaches musical expression techniques, and fosters a love for high-quality musical works. Additionally, the article examines opportunities to nurture creativity, improve teamwork skills, and meaningfully organize free time through music listening. Practical examples are used to reveal the educational, aesthetic, and social functions of this activity.

**Key words:** listening to music, aesthetic taste, music lessons, journey into the soul, national spirituality, musical ceremonies, gifted children, friendship, world musical art.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается процесс прослушивания музыки детьми, включающий примеры произведений различных композиторов, а также его роль и значение в воспитании подрастающего поколения. Раскрываются вопросы формирования эстетического вкуса детей посредством прослушивания музыки, знакомства с шедеврами мирового музыкального искусства, обучения средствам музыкальной выразительности и привития любви к произведениям высокого художественного уровня. Также анализируются возможности развития творческих способностей, навыков коллективной работы и содержательной организации досуга. На основе практических примеров выявлены воспитательные, эстетические и социальные функции прослушивания музыки.

**Ключевые слова:** прослушивание музыки, эстетический вкус, музыкальные занятия, путешествие в мир души, национальная духовность, музыкальные церемонии, одарённые дети, дружба, мировое музыкальное искусство.

## KIRISH

Har bir insonning qalbida musiqaga bo'lgan ehtiyoj yashirin bo'ladi. Bu ehtiyoj bolalik davridan boshlab tabiiy ravishda shakllanadi va uni to'g'ri yo'naltirish hamda rivojlantirish orqali insonning dunyoqarashi, estetik didi va ruhiy olami boyib boradi. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar uchun musiqiy tarbiyaning ta'siri beqiyosdir. Dars jarayonida beriladigan nazariy bilimlar yetarli bo'lmagligi mumkin, shu sababli darsdan tashqari mashg'ulotlar, xususan, musiqiy faoliyatlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Musiqiy mashg'ulotlar – bu faqat kuy yoki qo'shiqni o'rganish emas, balki bolaning qalb olamiga sayohat qilish, ichki his-tuyg'ularini ifoda etish imkonini beruvchi jarayondir. Ushbu mashg'ulotlar orqali bolalar milliy ma'naviyatimiz va musiqiy marosimlarimiz bilan yaqindan tanishadi, sahnada o'zini tutish, jamoa bilan ishlash kabi ko'nikmalarni egallaydi.

Eng muhimi, ular san'atga mehr qo'yadi va ma'naviy jihatdan boyiydi. Bugungi zamonaviy ta'lim jarayonida ana shunday mashg'ulotlarning ahamiyati ortib bormoqda. Ular nafaqat iqtidorli bolalarni aniqlash va rivojlan-



tirishga xizmat qiladi, balki har bir bolaning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda uni yot g'oyalardan asrashda samarali vosita sifatida xizmat qilmoqda. Zero, yuragi musiqa bilan to'lgan yosh qalb yomon yo'lni tanlamaydi.

Bolalarning musiqiy bilimlar tizimida musiqa tinglashning o'rni va ahamiyatini baholash oson emas. Musiqa tinglamasdan turib madaniyatni o'rgatish, jahon musiqa san'ati durdonalari bilan tanishtirish, musiqaning ifoda vositalarini o'rgatish va yuksak badiiy saviyadagi asarlarga nisbatan muhabbat uyg'otish mumkin emas. Ushbu fazilatlarini shakllantirishda musiqa tinglash jarayoni muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Musiqa tinglash jarayonida bolalar turli bastakorlarning asarlaridan namunalar tinglaydilar. Shostakovichning so'zlari bilan aytganda: "Musiqani sevish uchun, avvalo uni tinglash kerak." Vatan, do'stlik, mehnat va boshqa jismoniy hamda aqliy faoliyatlarga bag'ishlangan musiqiy asarlarni tinglash bolalarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Agar bola tinglagan musiqa yoki san'at asari haqida hech qanday savol bermasa, unda hissiyot yuzaga kelmasa, bu aloqaning shaxsiy munosabat bilan bog'lanmagan, yuzaki xabar tarzida qolganini bildiradi. Bunday holatda, pedagogik vazifa bajarilmagan, maqsadga erishilmagan hisoblanadi.

V.I. Petrushin o'zining "Musiqiy psixologiya" asarida musiqaning psixologik xususiyatlari va musiqa idroki haqida so'z yuritadi. Uning fikricha, tinglovchi biror musiqiy asarni ilgari eshitgan bo'lsa, uning muallifi yoki nomini tezda aniqlay oladi. Har bir musiqiy asar insonda avvalgi hayotiy taassurotlarni uyg'otadi. Biroq tinglovchi asarni idrok etishda o'z kayfiyati emas, balki kompozitorning ruhiy holati va his-tuyg'ularini anglay olishi zarur. Petrushinga ko'ra, musiqiy idrok – bu musiqani eshitish qobiliyatining shakllanishiga bog'liq. Shu bilan birga, insonning tarbiyalangan muhit, bilim darajasi va yoshi ham uning musiqiy idrokiga bevosita ta'sir qiladi. Olimning fikricha, har bir kishining musiqiy didi uning yashash joyi va ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog'liq. U yana ta'kidlaydiki, "musiqiy idrok tafakkurning boshlang'ich bosqichidir".

Petrushinning fikrlarini umumlashtirgan holda quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- Musiqiy idrok eshitish sezgisi bilan chambarchas bog'liqdir.
- Musiqani anglashda ilgari orttirilgan taassurotlar faollashadi.
- Insonlarning musiqiy didi ular yashayotgan ijtimoiy muhit bilan bog'liq bo'ladi.
- Musiqiy idrok tafakkur jarayonining ilk bosqichlaridan biridir.

N.A. Vetlugina o'zining "Musiqani idrok etish" nazariyasida musiqaning ta'sirchanligi va uni ong orqali idrok etish malakalarini shakllantirish bosqichlarini yoritadi. Vetlugina, ayniqsa, bolalarning musiqiy asarlarni idrok etish muammosi bilan chuqur shug'ullangan. U ijro etishdan ko'ra musiqa tinglash ruhiyatga kuchliroq ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Vetlugina musiqa tinglash jarayonining o'ziga xos metodikasi bo'lishi kerakligini ham qayd etadi. Maktablarda bolalarga turli mazmundagi qo'shiqlarni tinglatishda, bu jarayonni pedagogik maqsadga yo'naltirilgan holda samarali tashkil etish lozim. Uning fikricha, musiqaning kuy va ifoda vositalari inson his-tuyg'ulariga ta'sir qilib, turli kayfiyatlarni uyg'otadi. Qo'shiqning matni va g'oyaviy mazmuni esa tinglovchilarning ongiga ta'sir qilib, ularda fikrlashga undovchi hayajonni keltirib chiqaradi.

B.V. Asafev (1884–1949) esa musiqa tinglash va uni idrok etishni ikki xil tarzda izohlaydi:

- Tinglovchi musiqa bilan uyg'unlashib, undan zavqlanadi va bu holat kundalik odatga aylanadi.
- Tinglovchi o'zini butunlay musiqa ummoniga sho'ng'iradi, qalbi bilan uni his qiladi va musiqa bilimdoni sifatida tinglaydi.

Asafev musiqa tinglovchilarini ham farqlaydi. Unga ko'ra, musiqa bilimdonlari va havaskorlar musiqani turlicha idrok etadi. Musiqashunoslar musiqani tinglaganda uning ijodkori, shakli, xarakteri va janri haqida to'liq fikr yurita oladi. Boshqa tomondan, havaskor tinglovchilar faqatgina musiqaning umumiy xarakteri yoki badiiy obrazini qisman anglay oladilar.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ma'lumotlar asosan maktabgacha ta'lim muassasalarida olib borilgan kuzatuvlar, musiqiy mashg'ulotlar videoyozuvlari tahlili va tarbiyachilar hamda musiqa rahbarlari bilan suhbatlar orqali yig'ildi. Olingan ma'lumotlar kontent tahlili usuli orqali saralandi hamda bolalarning musiqani idrok etishiga ta'sir etuvchi omillar aniqlab chiqildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Asarni anglashning ikkinchi bosqichida bola asar haqida o'z fikrini bayon qilishi, uning g'oyaviy-badiiy mazmunini baholashi, xarakterli xususiyatlarini tahlil qila olishi zarur. Bu bosqichda tanqidiy fikrlash, san'atshunoslik va muallif ijodiga oid to'plangan bilimlar mujassam bo'ladi. Musiqa tinglash, yakkanavoz va jo'rnavozni farqlay olish, cholg'u asboblari va ularning tembrlarini ajrata bilish, musiqiy did va idrokni rivojlantirish hamda o'zbek, qardosh va jahon bastakorlarining asarlarini eshitish orqali musiqiy-nazariy bilimlar kengayadi. Ushbu bilimlar bolalarning musiqiy-estetik saviyasini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Bolalarning musiqani idrok etish malakalarini shakllantirish, musiqaning tilini tushunishga o'rgatish, sevimli asarlarini tanlab olishga yo'l ochish, mualliflarga nisbatan minnatdorlik tuyg'usini uyg'otish va milliy hamda mumtoz musiqaga qiziqish hosil qilish muhim vazifalardandir. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning yoshi, rivojlanish darajasi va qiziqishlariga mos, badiiy mazmuni boy, yuksak g'oyalarni o'zida aks ettiruvchi musiqalar yangrashi zarur. Bolalar oilada, televidenie, radio, teatr, konsert yoki boshqa jamoat joylarida doimiy ravishda musiqaga duch keladilar. Shunday bo'lsa-da, ular eshitayotgan musiqaning barchasi ham yosh xususiyatlariga mos emasligi yoki ularni to'laqonli anglashga qodir emasliklarini inobatga olish lozim. Shu sababli musiqa mashg'ulotlari, ayniqsa, tinglash jarayonlari bolalarning musiqiy faoliyatini pedagogik maqsadga muvofiq ravishda boshqarish va yo'naltirishda, estetik tarbiya berishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Ta'lim jarayonidagi har bir musiqiy faoliyat – xoh u qo'shiq kuylash, xoh musiqa savodi, xoh musiqa tinglash bo'lsin – barkamol shaxsni tarbiyalashga qaratilgandir. Musiqa madaniyati darslari o'ziga xosligi bilan ajralib turadi, chunki unda musiqa ta'limining bir qancha yo'nalishlari uyg'unlashgan bo'ladi. Ayniqsa, xor bo'lib kuylash va musiqiy asarlarni tinglash orqali bolalarning musiqiy didi shakllanadi. Mashg'ulotlar tarkibida qo'shiq kuylash, cholg'u asboblari jo'r bo'lish, musiqa ostida ritmik harakatlar bajarish orqali estetik idrok va ijodiy qobiliyat yuksaladi. Bolalarda musiqaga mehr uyg'otish uchun, avvalo, ular tinglayotgan asarni sevishi kerak. Bu esa faqat yuksak badiiy-estetik qiymatga ega asarlar orqali ta'minlanadi.

Mahoratli ijrochidan eshitilgan musiqiy asar bolada chuqur taassurot, hissiyot va fikr-mulohazalarni uyg'otadi. Qo'shiqning tinglovchiga ta'siri asarning qanday ijro etilgani, sozanda yoki xonandaning mahorati bilan chambarchas bog'liq. Biroq bu holatning o'zi yetarli emas. Tinglovchi asarning muallifi, yaratilgan davri, shakli, turi, o'lchovi, ritmi kabi xususiyatlar haqida yetarli bilimga ega bo'lsa, asarning mazmunini to'la anglab, u orqali hissiy va ongli yuksalishga erishadi.

Milliy musiqamizni to'g'ri idrok etishga tayyorlash maktabgacha ta'limdagi eng muhim vazifalardan biridir. Bu jarayonni amalga oshirish musiqa rahbarining zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Musiqa tinglatishdan avval bolalar bilan qisqacha suhbat o'tkazish, asarning mazmuni, xarakteri va muallifi haqida ma'lumot berish zarur. E. Gorskaya ta'kidlaganidek, tinglashdan avvalgi suhbat bolani psixologik tayyorlaydi. Asarning janri, yaratilish tarixi, g'oyaviy yo'nalishi haqida berilgan izoh tinglovchining asarni to'laqonli idrok etishiga zamin yaratadi. Shuningdek, bolalarga musiqiy asarlar orqasida ma'lum voqeliklar, his-tuyg'ular va fikrlar mavjudligini tushuntirish ularning hayotiy tajribasiga asoslanishi lozim.

Musiqiy tarbiyada bolalarni nafaqat ijro etishga, balki musiqani emotsional va ruhan anglashga ham o'rgatish kerak. Odatda bolalar musiqani qo'shiq kuylash orqali eshitadilar, ammo bu etarli emas. Musiqa rahbari bolalarni murakkabroq kuy va asarlarni tinglashga tayyorlashi kerak. Bu esa rahbarning ijrochilik qobiliyatiga bog'liq. Agar rahbar bunday salohiyatga ega bo'lmasa, u holda zamonaviy texnik vositalar – audiofayllar, musiqiy markazlar, kompyuterlar yordamida bolalarning emotsional holatini uyg'otishi mumkin. Biroq magnitofon orqali tinglatilgan asarga qaraganda rahbarning o'zi ijro etgan asar bolalarda kuchliroq ta'sir uyg'otadi. Eng yaxshi natija esa – asarni avval rahbar o'zi ijro etib, so'ng texnik vosita orqali tinglatgan holatda yuzaga keladi.

Boshlang'ich sinflarda musiqa tinglash bo'yicha quyidagi asosiy yo'nalishlar mavjud:

- *birinchidan*, har xil mazmundagi va mualliflikdagi asarlarni tinglash orqali musiqiy zahira to'plash;
- *ikkinchidan*, musiqiy termin va tushunchalarni o'zlashtirish, musiqa ifoda vositalari va asar elementlari haqida boshlang'ich bilimlarga ega bo'lish.

Tinglash jarayoni bosqichma-bosqich tashkil etiladi:

- 1) asar haqida kirish so'zi;
- 2) asarni ijroda yoki yozuvdan tinglash;
- 3) musiqiy va badiiy jihatdan suhbat orqali tahlil qilish;
- 4) asarni takror tinglab, yakuniy xulosalar chiqarish.



Agar bolalar tinglagan asarlar mazmunini anglab, kompozitorlar haqida qisqacha ma'lumotga ega bo'lishsa, bu mashg'ulotning asosiy maqsadiga erishilgan bo'ladi. Tinglash jarayonida ular quyidagi ko'nikmalarni shakllantiradi:

- musiqiy asarni jimlikda, diqqat bilan tinglash;
- asar mazmuni va xarakterini anglash;
- musiqaning janrlari va temblari haqida tushunchaga ega bo'lish;
- turli xor turlari (erkaklar, ayollar, bolalar, aralash) va yakkanavozlarni farqlay olish;
- milliy cholg'ular, orkestr turlari va musiqa janrlarini ajrata olish.

Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, bolalar tinglagan asarlari bo'yicha chizgan rasmlari orqali o'z taassurotlarini ifoda etishadi. Musiqa rahbari bu tasviriy faoliyat asosida ularning tafakkuri, idroki va ong darajasini baholashi mumkin. Tinglash davomida guruhda tinchlikni saqlash muhim shart hisoblanadi. Jimlikda tinglashga odatlangan bola keyinchalik yuksak madaniyatli shaxsga aylanishi ehtimoli yuqori.

Musiqiy asarlarni takroran tinglash – bilimlarni chuqurlashtirishning asosiy vositalaridan biridir. Har bir bolaning tinglagan asar yuzasidan o'z fikrini bayon qilishi, savollarga javob bera olishi tinglov tajribasini kengaytiradi. Masalan: "Bu qo'shiqni ilgari eshitganmisiz?", "Qayerda eshitgansiz?", "Qo'shiq sizga yoqdimi?", "Mazmunini tushuntirib bera olasizmi?" kabi savollar orqali bolalarda chuqur mushohada qilish, diqqat bilan eshitish, mustaqil fikr yuritish ko'nikmalari shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, bolalarga musiqa tinglash madaniyatini o'rgatish, ularni jahon musiqa san'ati durdonalari bilan tanishtirish, musiqaning boy ifoda vositalarini anglatish va yuqori badiiy saviyadagi asarlarga muhabbat uyg'otish orqali musiqiy tarbiyaning ta'siri kuchayadi. Bu esa, o'z navbatida, musiqani hayotiy-estetik anglash va musiqiy tafakkurni shakllantirishning muhim bosqichidir.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Musiqiy ta'lim tizimida, xususan, musiqa tinglash uning mazmunini tashkil etuvchi asosiy tarkibiy qismlardan biridir. Bolalar musiqa tinglash jarayonida yakkanavoz va jo'navozni ajrata olishlari, ansambl va orkestr ijrosini farqlashlari, sozlar va cholg'u asboblarning temblarini taniy olishlari, shuningdek, o'zbek, qardosh va jahon xalqlari bastakorlarining asarlaridan namunalar tinglash malakasini egallashlari zarur.

Musiqa tinglash mashg'ulotlarda barcha faoliyat turlari bilan uzviy bog'liq holda amalga oshiriladi. Demak, musiqa tinglash orqali bolalarda musiqani anglash, uning obrazlari vositasida hayotni va borliqni estetik idrok etish, tushunish va bilish qobiliyati rivojlanadi.

Yuqorida keltirilgan pedagogik va metodik shart-sharoitlar to'liq bajarilgan taqdirda, bolalarda musiqiy asarlarni badiiy-g'oyaviy jihatdan mantiqan to'g'ri idrok etish, musiqiy tafakkur va didni shakllantirish, asarni qadrlash va to'g'ri baholash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun samarali asos yaratiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yo'ldoshev T. Tarbiyaning nazariy asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2007 yil.
2. Raxmonov A. Musiqa pedagogikasi asoslari. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2008 yil.
3. Abduraxmonova Z. Estetik tarbiya va musiqa darslarning ahamiyati. // Ta'lim va tarbiya, 2021, №4. – B. 25–28.
4. Sharipova G. Musiqa ta'limda innovatsion yondashuvlar. // Zamonaviy ta'lim, 2020, №1. – B. 33–36.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №6**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.